

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/27.09.2024.Ped.82.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

VOXOBOVA MUNIRAXON SADIRDINOVNA

**BO‘LAJAK LOGOPEDLARNI ALALIYA NUTQ NUQSONI USTIDA
ISHLASHGA TAYYORLASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.03 –Maxsus pedagogika

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Voxobova Muniraxon Sadirdinovna

Bo‘lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....3

Вохобова Мунирахон Садирдиновна

Совершенствование методики подготовки будущих логопедов к работе с речевыми нарушениями при алалии.....23

Vokhobova Munirakhon Sadirdinovna

Improving the methodology of preparing future speech therapists to work with speech disorders caused by alalia.....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/27.09.2024.Ped.82.05 RAQAMLI ILMY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

VOXOBOVA MUNIRAXON SADIRDINOVNA

**BO‘LAJAK LOGOPEDLARNI ALALIYA NUTQ NUQSONI USTIDA
ISHLASHGA TAYYORLASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.03 –Maxsus pedagogika

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped9582- raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (cspi.uz/uz ilmiy-kengash) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Raximova Xurshidaxon Sadikovna**
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Abdullayeva Gavhar Saparovna**
pedagogika fanlari doktori (DSc)

Arslonova Madinaxon Mansurovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent

Yetakchi tashkilot: **Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD. 03/27.09.2024.Ped.82.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712- 45-41)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi
p.f.f.d. (PhD), dotsent

D.O.Ximmataliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi
p.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda inklyuziv va korreksion ta'limga sifatli kadrlarni tayyorlashda shaxsga yo'naltirilgan tamoyillar, muammoli va individual yondashuvlardan foydalanishga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa oliy ta'lim mazmunini, talabalar faoliyatini tashkil etish shakllari va metodlarini optimallashtirishni, adaptivlashtirishni taqozo etadi. BMTning Dakar Dekloratsiyasi asosida qabul qilingan "Ta'lim hamma uchun" dasturida ta'lim nafaqat me'yorda rivojlanayotgan sog'lom bolalar uchun, balki alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun ham qulay va sifatli bo'lmog'i lozim. Ushbu vazifaning amalga oshirilishida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini, ta'lim tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish, oliy ta'limda modullarni o'qitishning amaliy yo'naltirilgan metodik tizimini korreksion-pedagogik yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta'lim talabalarni kasbiy faoliyatga diagnostik, tashkiliy-metodik, refleksiv jihatdan tayyorlashni va bu jarayonni didaktik ta'minlashni taqozo etadi.

Dunyoda bo'lajak logopedlarni nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda innovatsion korreksion-rivojlantiruvchi yondashuvlardan foydalanishga tayyorlash hamda adaptiv individual dasturlar ishlab chiqishga yo'naltirishda adaptiv metodikalarni joriy etish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Oliy ta'limda korreksion-kompensatsion yondashuvlarga moslashtirilgan o'quv jarayonini determinizm, variativlik, real analiz, individual prognostika tamoyillariga ustuvorlik berish asosida tashkil etish dolzarb hisoblanadi. Bu esa logopediya yo'nalishi talabalari kasbiy yetilishining individual indikatorlar vositasida ta'minlanishini kafolatlashi mumkin bo'lgan innovatsion pedagogik mexanizmlarni taqozo etadi. Talabalarda alaliya nutq kamchiligi bo'lgan bolalar uchun qulay va moslashuvchan korreksion-rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish kompetensiyasini shakllantirishda metodik laboratoriya va ochiq ta'lim kontenti muhim omil sanaladi. Shuning uchun oliy ta'lim o'quv jarayonini amaliy yo'naltirilgan holda va ta'lim sub'yektlari hamkorligida tashkil etish dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv va korreksion ta'lim-tarbiya tizimini ijtimoiy buyurtma asosida modernizatsiyalash hamda bu jarayonga kasbiy jihatdan kompleks tayyor kadrlarni tayyorlashning huquqiy me'yorlari takomillashtirilgan. "O'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish" vazifasi tizimli ravishda bajarilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar ustuvorligida belgilab berilgan. Mazkur vazifa bo'lajak logopedlarni nutq nuqsonlariga ega bolalar va kattalar bilan ishlashga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari hamda o'qitish shakllari va metodlarini tadqiq qilishni talab etmoqda. Bo'lajak logopedlarning kasbga doir nazariy, amaliy bilimlarini mustahkamlash, metodik, diagnostik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha integrativ modelni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish muhim sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29-aprelda

PF5712-son “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to’g’risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” farmonlari, 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ huquqiy xujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda nutq kamchiligiga ega bolalar bilan diagnostika va korreksiya ishlarini olib borishning metodik xususiyatlari M.Ayupova, Z.M.Axmedova, L.Muminova, D.A.Nurkeldieva, X.M.Pulatova, F.Qodirova, Sh.E.Taxtayarova, va boshqalar, bo‘lajak maxsus pedagoglarni kasbiy amaliyotga tayyorlashning pedagogik-psixologik, tashkiliy-metodik aspektlari N.Abidova, M.Nazarova, D.Nurkeldieva, R.Shomaxmudova, G‘.Shoumarov, X.Pulatova, N.Raxmonqulova, M.Hamidova, M.Xakimova, A.Xoliqovlarning tadqiqotlarida tahlil etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan I.I.Kukushkinning, O.A.Mineevaning, N.G.Petelina, O.B.Dudko, G.Yu.Odinokova, N.V.Mikkoeva, A.N.Koxichko, O.Sapronova, N.Jinkin, J.I.Shif, K.V.Vasilevna, T.Tkachenko, T.B.Filicheva, N.P.Simaeva, I.V.Pantuyuk, A.Ovchinnikov, V.V.Gladkaya, P.K.Anoxin, A.R.Luriya, va boshqalarning ilmiy izlanishlarida nutq kamchiliklariga ega bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari, ular bilan ishlashning turli usullari hamda vositalarini adaptivlashtirish masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlarda alaliya va unga yaqin nutq buzilishlarini o‘rganish, ularning neyropsixologik, lingvistik va pedagogik mexanizmlarini aniqlash bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, S.Pinker, C.Bishop, R.Paul, D.Aram, J.Miller, M.Rice, B.Leonard, C.Johnson, L.Kauschke, T.Watkins kabi tadqiqotchilar o‘z ishlarida spesifik nutq buzilishlari va alaliya o‘rtasidagi bog‘liqlik, miya faoliyatidagi fonetik va semantik jarayonlarning rivojlanish dinamikasini tahlil qilganlar va boshqalar logopedik ta’sirni va mashg‘ulotlarni tashkil etishning an’anaviy va innovatsion xususiyatlari ilmiy tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot Andijon davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga

muvofiq “Sohada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg’unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilashga qaratilgan amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish” mavzusi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlash metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;

bo‘lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlash modelini takomillashtirish;

bo‘lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish;

bo‘lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlashning didaktik ta’minotini takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida bo‘lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlash metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Chirchiq davlat pedagogika universitetida 82 nafar, Qo‘qon davlat pedagogika institutida 76 nafar Namangan davlat pedagogika institutida 87 nafar universitetlarining jami 245 nafar talabalari jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini bo‘lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlashning mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida manbalar va tajribalarni o‘rganish, anketa, intervyu, suhbat, pedagogik eksperiment, natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari alaliyaning polisensor jarayonda diagnostika va korreksiyalashga o‘rgatuvchi logopedik ta’sir algoritmini nuqson simptomatikasini tahlil qilish muhitida moslashuvchanligiga ko‘ra optimallashtirish asosida aniqlashtirilgan;

bo‘lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlash modeli diagnostika va korreksiya jarayonlarining determenistik uzviyligini ta’minlovchi profilaboratoriyani uchta modulli kombinatsiyada, talabalarning kasbiy rivojlanish xaritasi monitoringida mustaqil ta’limga integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlash texnologiyalari talabalarning sensor-integrativ ta’sirni qo‘llashga o‘rgatuvchi simulyativ mashqlarni konstruktiv-didaktik strukturaviy mashg‘ulotlarda davriy monitoring qaydlariga ko‘ra adaptivlashtirish asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlashning didaktik ta’minot talabalarda kasbiy motivatsiyani intensiv rivojlantiruvchi, fobiyalarni korreksiyalovchi imitatsion mashg‘ulotlarda adaptiv logopedik resurslarni differensial reglamentda qo‘llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak logopedlarni alaliya nutq kamchiligi ustida ishlashga tayyorlash jarayonini metodik va didaktik takomillashtirishga oid "Pedagogik-psixologik diagnostika" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqildi va joriy etildi;

alaliya nutq kamchiligini psixologik holat bilan integrativ diagnostika qilish va kompleks korreksiya qilish metodlarini o'zida mujassamlovchi "Logopedik texnologiya" darsligi chop etildi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari va logopunktalarda alaliy nutq nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion mashg'ulotlarni adaptiv metodikalarda tashkil etishga tayyorlashni ko'zda tutuvchi "Logopedik profilaboratoriya" uchun albom va rasmlar majmuasi ishlab chiqildi va joriy etildi;

bo'lajak logopedlarning diagnostik, metodik va refleksiv tayyorgarligini kasbiy-amaliy jihatdan intensiv takomillashtirishga mo'ljallangan "Alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlashda talabani individual ta'lim traektoriyasi" mavzusidagi seminar dasturi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materialari to'plami, OAK ro'yxatidagi hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, muammoning ijtimoiy-pedagogik tavsifini oydinlashtiruvchi o'quv qo'llanma nashr etilganligi, to'plangan materiallarning dissertatsiya mazmunini yoritishga imkon beradigan hajmda ekanligi, tadqiqot ishida ilgari surilgan nazariy, metodik g'oyalarning soha amaliyotining mazmuni va funksiyalarini ifodalashga xizmat qilishi bilan belgilanadi hamda tajriba-sinov ishlarining haqqoniyligini, olingan natijalarning asoslilikini tasdiqlovchi ma'lumotlarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak logopedlarning metodik-diagnostik va kognitiv faoliyatini alaliya nutq kamchiligi ustida ishlashga nazariy, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim hamda amaliyot jarayonlarida kompleks yo'naltirishning pedagogik psixologik xususiyatlari va sharoitlari real sharoitlar tahlilida aniqlangan metodik bo'shliqlarga bog'liq holda ochib berilganligi; diagnostika va korreksiya ishlarining determenistik uzviylikini ta'minlovchi simulyativ kompleks individual va differensial yondashuvlar ustuvorligida ishlab chiqilganligi hamda ulardan foydalanishga talabalarni tayyorlashning innovatsion texnologiyalari va mexanizmlari ishlab chiqilib, kasbiy amaliyotga talabalarni tayyorlashning integrativ modeli funksional jihatdan takomillashtirilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga mo'ljallangan adaptiv resurslar, sensomotor diagnostika va korreksiyalashga o'rgatuvchi logopedik kompleks, talabalar kasbiy rivojlanish jarayonida qo'llanilgan korreksion-rivojlantiruvchi yondashuvlar, shuningdek, tadqiqot natijasida taklif etilgan tavsiyalar va metodik ko'rsatmalardan maxsus pedagogika yo'nalishida kadrlar tayyorlash jarayonida, sohaga oid maxsus pedagoglarning malaka oshirish kurslarida, maxsus pedagogika yo'nalishida tadqiqot olib

borayotgan tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlariga oid tajriba-sinov ishlarini modellashtirishda hamda logopedik jarayonni didaktik takomillashtirishda foydalanilishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlash metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlashning pedagogik shart sharoitlari alaliyani polisensor jarayonda diagnostika va korreksiyalashga o'rgatuvchi logopedik ta'sir algoritmini nuqson simptomatikasini analiz qilish muhitida moslashuvchanligiga ko'ra optimallashtirishga oid takliflari "Pedagogik-psixologik diagnostika" o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi, oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi, 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 307609-sonli guvohnoma). Natijada, talabalarni alaliya nutq nuqsoniga ega bolalarni tashxislash metodikalaridan foydalanishga tayyorlash jarayoni metodik jihatdan ta'minlangan;

bo'lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlash modeli diagnostika va korreksiya ishlarining deterministik uzviyligini ta'minlovchi profilaboratoriyani 3 ta modulli kombinasiyada talablarning kasbiy rivojlanish xaritasi monitoringida mustaqil ta'limga integrasiyalashga oid tavsiyalari "Logopedik texnologiya" darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 7-maydagi 149-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 149125-sonli guvohnoma). Natijada, alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashda qo'llaniluvchi metodlar va texnologiyalardan foydalanishga talabalarni tayyorlashning didaktik ta'minoti takomillashtirilgan;

bo'lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlash texnologiyalari talabalarni sensor integrativ ta'sirni qo'llashga o'rgatuvchi simulyativ mashqlarni konstruktiv-didaktik strukturalashtirilgan mashg'ulotlarda davriy monitoring qaydlariga ko'ra adaptivlashtirishga doir takliflaridan "Ko'rish qobiliyatida nuqsoni bor va ko'zi ojiz o'quvchilarga mental arifmetika yordamida arifmetik amallarni o'rgatish" nomli Farg'ona davlat universitetida amalga oshirilgan amaliy loyihaning mazmunini takomillashtirishda foydalanilgan (2023-yil 22-noyabrdagi 375-11-0-F/23-son Davlat ilmiy-texnik dasturlari farmoyishi hamda Farg'ona viloyati oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasining 2023-yil 22-noyabrdagi 77-son ma'lumotnoma). Natijada, talabalarining sensor integrativ muhitda bolalar faoliyatini tashkil etish bo'yicha metodik tayyorgarligini rivojlantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, jumladan, respublika jurnallarida 3 ta, xorijiy jurnalda 2 ta maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 130 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyani birinchi bobi **“Bo'lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, unda bo'lajak logopedlarni nutq nuqsonlari ustida ishlashga tayyorlashning tashkiliy-metodik aspektlari va omillari bayon etilgan.

Bugungi kunda bo'lajak logopedlarni kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashning amaliy yo'nalgan mexanizmlarini tadqiq etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bo'lajak logopedlarda shaxsiy-kasbiy sifatlarni tarkib toptirish va ularda diagnostik, metodik malakalarni rivojlantirishda soha amaliyotiga bog'liq mazmun va ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, bugungi kunda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda qator nutq nuqsonlari turg'unlashib bormoqda. Ularni o'z vaqtida erta aniqlash va korreksiyalash masalasini hal etishda innovasion yondashuvlar va metodikalarning o'rni kattadir. Xususan, alaliya nutq nuqsoniga ega bolalar bilan olib boriluvchi korreksion ishlarning samaradorligini oshirish ijtimoiy-pedagogik va tashkiliy-metodik muammo sifatida tavsiflanadi.

Maxsus pedagogika amaliyotda logopedik ta'sirni takomillashtirish va bolalarni maktab ta'limiga samarali tayyorlashga oid tadqiqotlar olib borilgan. Sh.E.Taxtayarovanning izlanishida korreksion-logopedik ish tizimi modelini yaratish va logopedik ish bosqich, yo'nalish, shakllarini aniqlashtirish asosida manzilli yordam ko'rsatishni takomillashtirish va nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni nuqson turiga ko'ra tekshirish metodikalari logopedik skrining bo'yicha saralash hamda logopedik tashxislash instrumentariysini o'zaro mujassamlashtirishga erishilgan. Mazkur tadqiqotda keltirilgan mashg'ulot modellari unikalligi bilan biz olib borgan tajribalarda ham ahamiyatli hisoblandi. Ya'ni eng muhim tayanilgan holat sifatida **“logopedik ta'sirni bolalar nutqiy imkoniyatlariga differensial moslashtirish”** vazifasi tan olindi. Alaliya nutq kamchiligi bo'lgan bolalarning nutqiy imkoniyatlari turfaligi bois, korreksion ta'sirning moslashuvchan modellarini qo'llashga talabalarni tayyorlash talab etiladi. Bo'lajak logopedlarni alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar bilan ishlashga tayyorlash kompleks tavsifga egadir.

J.I.Shif esa nutq va tafakkur bog'liqligini shunday tavsiflaydi: “Nutqdan tashqarida rivojlanayotgan ko'rgazmali tafakkur tugal emas, ya'ni amalga oshmagan bo'ladi”. Demak, alalik bolalar uchun ma'lumot idrok etilsa-da, biroq

uning tashqi olam bilan bog'liqligi amalga oshmasa muloqot to'liq maqsadiga erishmaydi. O'z-o'zidan tafakkur va nutq o'rtasidagi bog'liq jarayonning to'laqonli amalga oshirilishi lozimligini talabalar anglashlari talab etiladi. Bu ham bo'lajak maxsus pedagog-logopedlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-didaktik omili sifatida maydonga chiqadi.

Bu jarayon ham pedagogik, ham psixologik, ham ijtimoiy jihatlari bilan dolzarbdir. Alaliya nutq nuqsoniga ega bolalar bilan ishlashga logopedlarni tayyorlashda o'quv rejada o'rin olgan ixtisoslik modullarining samarali o'qitilishi muhim shartlardan hisoblanadi. Ixtisoslik modullarining amaliyot bilan bog'liqligi va korreksion mashg'ulotlar, ota-onalarga maslahatlar va tor doira mutaxassislar bilan hamkorlikni modellashtirishga tayyorlovchi mavzular bilan boyitilgani alohida ahamiyatlidir. Dastlabki kuzatishlar orqali aniqlangan ma'lumotlardan biri shuki, 1-kurs malakaviy amaliyot jarayonida diagnostikaga oid nazariy bilimlarga talabalar tomonidan ehtiyoj sezilgan. Ya'ni umumiy va maxsus pedagogik-psixologik bilimlar bilan birgalikda imkoniyati cheklangan bolalarni diagnostika qilish ko'nikmalari taqozo etilgan.

Bo'lajak logoped o'z ish faoliyatining qanchalik dolzarb va qanchalik murakkabligini oliy ta'limda o'qish davridayoq sezishi va shunga mos o'zining kasbiy rivojlanish xaritasini ongli ravishda mas'uliyat bilan tuzishi kerak. Bundan tashqari ular logopedik yordamning kompleksligini tushunishi va unda diagnostikaning ta'sirini anglashi maqsadga muvofiqdir.

Diagnostik kompetensiyani rivojlantirishning turli metodlari va texnologiyalarini o'rganish hamda mavjud metodik tizimni takomillashtirish bizning tadqiqotimizda alohida omil sifatida tanlandi. Bunga bir qator olimlarning tadqiqotlarida bildirilgan xulosalar asos bo'ldi. Xususan, O.Sapronova Logopediya ixtisosligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarda diagnostik kompetensiyalarni aniqlashning innovasion texnologiyalarini tadqiq qilgan. Olimning tavsiyalarida tilga oid malakalarni shakllantirishda nutq apparati va uning faoliyatini tashxis qilish, tovushlarni talaffuzida uchraydigan kamchiliklarning sabablarini o'rganishda bolaning umumiy rivojlanishini tahlil qilish kabilarga omil sifatida qaralgan. Ko'rinib turibdiki, bo'lajak logopedlarning diagnostik kompetensiyasi qanchalik shakllangan bo'lsa, shunchalik ularning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasi yuqorida bo'ladi.

Bo'lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlashda kasbiy faoliyatning psixologik aspektlarini o'rganish va talabalarga bu bo'yicha nazariy bilimlar berish ham muhim sanaladi. Chunki logopedik ish o'zining kompleks tavsiflarga egaligi bilan boshqa pedagogik kasblardan farq qiladi. Shuning uchun biz maxsus pedagogika sohasida kadrlar tayyorlash tizimi mazmuni, shakllari va texnologiyalarini o'rganish hamda takomillashtirish bo'yicha nazariy manbalarni hamda amaliyotni o'rganish natijasida logopedik faoliyatning an'anaviy va innovatsion funksiyalarini ajratdik. Ya'ni logopedik faoliyatning tarkibini diagnostika, targ'ibot-tashviqot, korrektsiya, sog'lomlashtirish hamda kollaboratsiya kabi komponentlar tashkil etadi deb hisobladik. Shuning uchun talabalarning ijtimoiy faoliyat traektoriyasini amaliy yo'naltirish masalasi ham tadqiqotda alohida muhim sanaldi. Chunki ijtimoiy

faoliyat traektoriyasi asosida talabalarda kommunikativlik, o'zini o'zi namoyon etish, boshqalarni tinglash, nostandart qarorlarni qabul qilish, kasbiy vaziyatlarni tezkor tahlil qilish va mos yo'lni tanlash kabi ko'nikmalar rivojlandi.

Oliy ta'limning mazmunini amaliyotdagi ehtiyojlar bilan bog'liq ravishda optimallashtirish, ta'lim shakllarining turlaridan samarali foydalanish, xususan, talabalar mustaqil ta'limi samaradorligini ta'minlashning muhim komponenti sifatida uning didaktik ta'minotini modernizatsiyalash kabilar nafaqat bo'lajak logopedlarning kasbiy tayyorgarligida, balki boshqa sohada sifatli va mobil kadrlar tayyorlashda muhim sanaladi. Shuning uchun biz tadqiqot davomida talabalarga Alaliya nutq nuqsoni mohiyati, chuqurligi, uning oqibatida yuzaga keluvchi ijtimoiy muammolar kengligi va ko'lamini to'liq tushuntirish maqsadga muvofiqdir, deb hisobladik. Natijada, logopediya moduli va boshqa ixtisoslik modullari doirasida ma'ruza mashg'ulotlari mazmuni, tuzilishi, qayta aloqali tashkil etilishi bilan bog'liq omillarni ajratdik. Bu harakat orqali biz Alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga talabalarni kognitiv tayyorgarligini ta'minlash choralarni ko'rdik. So'ngra oliy ta'lim pedagoglarining ma'ruza mashg'ulotlari kuzatilganda ham talabalar faoliyatini natijaga yo'naltirgan holda tashkil etish bilan bog'liq metodik muammolar borligi aniqlandi. Natijada, alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlash bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarining samarali tashkil etilishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi:

Birinchidan, **nazariy ma'lumotlarning qiyosiy va tizimli shakllantirilishi:** ushbu omil pedagog uchun nafaqat nutq nuqsonlari tasniflari, balki o'zbek tilining barcha qonuniyatlari, nutq birliklari bo'yicha bolada shakllanishi lozim bo'lgan lingvistik ko'nikmalarga doir bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyadan xabardor bo'lish mas'uliyatini yuklaydi.

Bugungi kunda virtual hayotga o'ta berilib ketish, yovuz va qonli o'yinlarga qiziqish, jonli muloqotning ancha chegaralanib qolishi bolalarda gapirish motivatsiyasini so'ndirib, "sukut" holatiga moslashib qolishni barqarorlashtirmoqda.

Bundan tashqari nafaqat gapirmaslik, balki duduqlanish, tovushlarni almashtirib gapirish kabilar ko'p uchramoqda. Bu muammolarni korreksiyalash bo'yicha zamonaviy logopediya lingvistika, psixologiya, pedagogika fanlari integratsiyasi bazasidagi tendensiyalarni ilgari surmoqda.

Diagnostik, korreksiyaga oid tendensiyalardan talabalarni xabardor qilishda nazariy va amaliy mashg'ulotlarning innovatsion ta'lim muhitida tashkil etilishi muhimdir. Ma'ruza mashg'ulotlari faqat axborot yetkazish jarayoni emas, balki axborotlarni tushunish, qiyoslab o'rganish va o'zidan o'tkazish muhitiga aylanishi lozim. Bunda pedagogning taqdim etayotgan materialidan xabardorligi hamda o'zidan o'tkazgan holda egallanganligi muhim omildir. Shundagina Alaliya nutq nuqsoni bo'yicha nazariy ma'lumotlarni tizimli ravishda qiyosiy shakllantira oladi va vizual taqdim eta oladi. Masalan, Alaliyaga berilgan quyidagi ta'rif bilan boshqa nutq nuqsoni ta'rifi va tavsifi o'rtasidagi farqlarni talabalar ilmiy jihatdan anglashlari lozim: "Alaliya-bu bola nutqining rivojlanishi kechikishi yoki butunlay rivojlanmasligi bilan namoyon bo'ladigan og'ir nutq

nuqsoni bo‘lib, u bolaning bosh miyadagi organik shikastlanishlar (asosan bosh miya po‘stlog‘ining nutq markazlari) natijasida yuzaga keladi”.

Ikkinchidan, didaktik ta‘minot: Alaliya nutq nuqsoni va uning klinik-pedagogik-psixologik simptomlariga oid hamda uning ustida ishlashning korreksion-rivojlantiruvchi metod va texnologiyalari bo‘yicha adabiyotlar, elektron manbalar ro‘yxati hamda mavzuli dayjestlar tuzilgan bo‘lishi muhim tashkiliy-pedagogik omildir. Mazkur omilning talabalarni kasbiy amaliyotga metodik jihatdan tayyorlashdagi o‘rnini obyektiv baholagan holda biz tadqiqot doirasida “Alaliya nutq nuqsoni va uning ustida ishlashning korreksion-rivojlantiruvchi tizimi”- metodik dayjest ishlab chiqildi.

Uchinchidan, integrativ muhit: Alaliya nutq nuqsoniga oid mavzularni o‘zlashtirishda modullararo bog‘lab o‘rganishni taqozo etadi. Buning uchun pedagoglardan ichki (mavzular doirasida) va tashqi (boshqa modullar va amaliyot) integratsiya chegaralari va ularning mazmuniy bog‘lanishlarini hamda qiyoslanish nuqtalarini alohida ajratib, belgilab olish talab etiladi. Masalan, Alaliya nutq nuqsoniga oid nazariy va metodik bilimlar “Logopediya”, “Logopedik texnologiyalar”, “Logopedik o‘yin”, “Logopsixologiya” modullarining bevosita bog‘liqligida o‘rgatilishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, mazkur nutq nuqsoni xususida to‘liq ma‘lumotlar bilan qurollantiruvchi tibbiy va nevrologik bilimlarning integratsiyasiga erishish lozim.

Tadqiqot doirasida Alaliya nutq nuqsoni ustida talabalarni ishlashga tayyorlashga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi: 1) amaliy mashg‘ulot mavzularining ma‘ruza mashg‘ulotlari mavzulari bilan uyg‘un ketma-ketlikda hamda harakatlar algoritmi texnologik jihatdan aks etgan holda berilishi; 2) amaliy mashg‘ulotning texnik hamda didaktik ta‘minlanganligi; 3) amaliy mashg‘ulot xonasida harakatlanish maydonining mavjudligi va qulayligi.

Talabalarining Alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga metodik, diagnostik, refleksiv tayyorgarligini ta‘minlashda amaliy mashg‘ulot jarayonida reglamentga rioya etish ijobiy natijalarni ta‘minladi. Bunda “Assistent talaba” strategiyasi amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash uchun eng optimal metodik yo‘l sifatida taklif etildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bo‘lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlashning mazmuni va metodlari”** deb nomlanib, unda bo‘lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlash modeli bayon etildi. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqi ustida ishlashning korreksion, rivojlantiruvchi ish tizimini optimallashtirilgan variantlarda talabalar uchun o‘rgatish - modelning asosiy funksiyalarini tashkil etdi. Xususan, model alaliya nutq nuqsoni bor bolalar bilan ishlashning o‘ziga xos metodik tizimini tahlil qilish va samarali yondashuvlar bilan boyitish orqali logopedik amaliyot samaradorligini oshirishni ko‘zda tutdi. Chunki amaliyotda bu nutq nuqsoniga ega bolalarni boshqa nuqsonlar bilan farqlash va ularda nutqiy muloqotga motivatsiyani shakllantirish - o‘ziga xos murakkab jarayondir.

Bo‘lajak logopedlarni kasbiy faoliyatga kompleks tayyorlashda metodik mo‘ljalni to‘g‘ri olish va tajriba-sinov ishlarini natijaga yo‘naltirilgan holda olib

borish maqsadida oliy ta'limda o'quv jarayonini modellashtirishga oid ishlarni o'rgandik. Natijada taklif etilgan modelning baholash blokida ko'zda tutilishi kerak bo'lgan talabalar tayyorgarligi mezonlari tanlandi. Talabalarni Alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga professional darajada tayyorlashda ko'rsatkichlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning chegarasi qanday, bu chegaralarda talabalar kasbiy kompetensiyasiga oid qaysi elementlar yetarli shakllangan va qaysi biri esa keyingi bosqichga mos ekanligini aniqlash bo'yicha tajribalarga tayandik.

Logopedlik kasbi ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-pedagogik, gigiyenik kabi talablar majmuasi negizida amalga oshadigan faoliyatni ko'zda tutgani bois, ushbu faoliyatga talabalarni tayyorlashda amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'lim topshiriqlari integratsiyasi muhimdir. Shu sababli I.V. Pantyukning oliy ta'limni amaliyotga yo'naltirilgan holda tashkil etish modeli bloklari ishimizda o'rin oldi: "Bo'lajak mutaxassisni tayyorlashning umumiy tizimidagi amaliyot - bu nazariy bilimlar jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni bilan bog'laydigan ko'prik. Bu jarayon real kasbiy muhitga tezda moslashishga imkon beradi". Demak, logopedik faoliyat ruhiy-pedagogik talablar asosidagi maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishni talab etadi. Unda pedagogik mahorat, texnika, noziklik, ziyraklik va kuzatuvchanlik, ta'sir qilish qobiliyati muhim. Chunki alaliya nutq nuqsoni murakkab nuqsonlar qatoriga kirganligi sababli, uning ustida ishlash ham o'ziga xos metodik yondashuvlarni muntazam yangilab borishni, individual va differensial o'qitish usullarini takomillashtirishni, nutqiy monitoring yuritishning innovatsion mexanizmlarini talab etadi.

Talabalarning metodik tayyorgarligida nuqsonni bartaraf etishda xotira va diqqat mobilizatsiyasiga erishish muhim shartlardandir. Chunki alaliya nutq nuqsoni bilan ishlash samaradorligi logopedning kasbiy kompetensiyasi darajasiga bog'liqdir. Shu bilan birga, talabalar kasbiy kompetensiyasi shakllanganligini baholash, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muammolarni hal qilishga tayyorligini aniqlash bilan uyg'unlashadi. Xuddi shu kabi logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlashning metodik tizimi - yaxlit bir modelda aks etishda, talabalarni kasbiy muammolarni tezkor va samarali hal etishga tayyorlashni ko'zda tutuvchi tamoyillar, omillar, yondashuvlardan tashkil topishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Modelda bo'lajak logopedni yakka va frontal mashg'ulotlarni olib borishga tayyorlovchi individual yondashuvlar ko'zda tutildi. Shu sababli tajribalarning boshidanoq metodik ishlarni 3 ta mezoniga: metodik, diagnostik, refleksiv tayyorgarlikka yo'naltirilgan holda tashkil etdik.

Maqsadli blokda tadqiqotni amalga oshirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarining ijtimoiy buyurtmaga qaratilganligi va ko'zlangan maqsad, tamoyil va omillar hamda tayanch ta'limotlardan tashkil topdi.

Amaliyotda qo'llanilgan bir qator modellaridan farqli ravishda biz tayanch ta'limotlarni ham modelga kiritdik. Chunki Alaliya nutq nuqsoni bilan ishlashga tayyorlash bo'yicha metodik tizimda bolalar nutqini rivojlantirishda asosiy konseptual asos bo'luvchi bir qator ta'limotlar mavjudki, agar ularni talabalar to'liq anglab yetmasalar, keyingi tayyorgarlik ishlari mohiyatan chuqur va puxta

amalga oshmaydi. Shu sababli L.S.Vygotskiyning “Yaqin rivojlanish zonasi”, I.V.Pavlovning “Ikkinchi signal tizimi”, P.K.Anoxinning “Funksional sistema nazariyasi”, A.R.Luriyaning “Funksional miya tizimlari nazariyasi” kabi ta’limotlari tadqiqotimizda talabalarni amaliyotga tayyorlashda tayanch asos sifatida tanlandi.

Alaliya nutq nuqsonining murakkabligi va uning ustida olib boriluvchi korreksion ishlarning kompleks tavsifga egaligi sababli, omillarni tashkiliy-pedagogik (bilimlarni qiyosiy tahlilda tizimlashtirish) va metodik-diaagnostik (integrativ, imitatsion muhit; diaagnostik, texnologik resurslar) yo‘nalishda tizimlashtirgan holda modelga singdirdik. Talabalarning kasbiy bilimlarini ixtisoslik modullari integratsiyasida rivojlantirish maqsadga muvofiq. Shundagina talabalar uchun ham diaagnostik ham metodik kompetensiyalar tizimli shakllanadi.

Tadqiqot ishida talabalarni alaliya nutq nuqsoniga ega bolalar bilan ishlashga tayyorlash metodikasini shakllantirish asosida maxsus pedagogika ta’lim yo‘nalishlari talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini, logopediya fanini o‘qitishda ta’lim mazmuni, shakli, metod, vosita va texnologiyalarini samarali qo‘llanilishi orqali talabalarni alaliya nutq nuqsoniga ega bolalar bilan ishlashga tayyorlash metodikasini shakllantirish modeli ishlab chiqilgan, uni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlar aniqlangan (2-rasm qarang).


Maqsadli blok o‘z ichiga ijtimoiy ehtiyoj, maqsad, komponentlar oladi. Konseptual komponentda esa tamoyillar va omillardan iborat. Mazmunli komponentda amaliyotda aniqlangan muammolar, tayanch ta’limotlar, pedagogik shart-sharoitlar ularning mazmuni yoritilgan. Texnologik komponentda esa, talabalarni alaliya nutq nuqsoniga ega bolalar bilan ishlashga tayyorlash metodikasini shakllantirish bosqichlari ya’ni texnologiyalar, shakllar, metodlar va vositalar qamrab olingan.

Taqdim etilgan shakllar, metodlar va tamoyillar va faoliyat uslublari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga hamda yuqori natijalarga erishishga, fanni o‘rganishga talabalarda motivatsiyani oshirishga, talabalarning kasbiy malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga, auditoriyadagi o‘quv ishlarining ulushini qisqartirish va talabalarning mustaqil ishi hajmini oshirish va boshqalarga yordam beradi. Natijaviy komponentda talabalarni alaliya nutq nuqsoniga ega bolalar bilan ishlashga tayyorlash metodikasini shakllantirishning baholash mezonlari va darajalarini o‘zida aks ettirgan.

Alaliya nutq nuqsoni shakllari motor, sensor va sensomotorga ko‘ra qo‘llaniladigan ish turlari ham xususiylashadi. Lekin har uchala shaklda ham qo‘llaniluvchi va qulay adaptivlashuvchi metodlar va ish turlariga kengroq o‘rin berildi. Alaliya nutq kamchiligida uchraydigan barcha simptomlarni bartaraf etishda turli xil rasmlar, so‘z va gaplarning grafik sxemasi, nutqning tuzilishi va tovush tarkibini mustahkamlash uchun rangli fishkalardan foydalanildi. Grafik organayzerlar yordamida so‘zning morfologik ahamiyati o‘zgarishi, gap tuzilishining o‘zgarishi ko‘rsatib beriladi.

Sensor alaliyali bolalar savodga oid ko‘nikmalarni namoyon etishi mumkin, lekin ularning o‘qish va yozishlarida xatolar ko‘p kuzatiladi. Maktabgacha ta’lim

davrida alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashning muhim yoʻnalishi bu savodga oʻrgatishdir. Yaʼni korreksiya ishlari savod oʻrgatish ishlari bilan integratsiyalanadi. Savodga bu bolalarni imkon qadar erta oʻrgatish kerak. Savodga oʻrgatish orqali bolalar atrofda ishlatiladigan va koʻp uchraydigan tushunchalarni nomlashga va qoʻllashga moslashadi. Sekin-asta bu natijalar kengaytiriladi va leksik-grammatik hamda fonetik jihatlar rivojlantiriladi.



2-rasm. Talabalarni alaliya nutq nuqsoniga ega bolalar bilan ishlashga tayyorlash metodikasini takomillashtirish modeli

Sensor aliyali bolalarni savodga o'rgatishda global (yalpi) o'qish yo'li samaralidir. Bolalarda ayrim tovushlar yo'q bo'lgan holatlarda ham ularga savod o'rgatish ishlari korreksiya ishlari bilan parallel ravishda olib boriladi. Alaliya nutq kamchiligida tovushlarni aniq talaffuz qilmaslik, ularga savod o'rgatishda to'siq bo'la olmaydi. Tovush, bo'gin, so'zni eshitib bola bo'gin, so'zli jadval yoki harfni ko'rsatadi, kesma harflardan bo'gin, so'z tuzadi. Sekin-asta bolada fonema, grafema va artikulemalar o'rtasida bog'liqlik shakllanadi.

Alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashning dastlabki, biroq diagnostikadan keyingi bosqichlarida uzoq tizimli korreksiya ishlarini olib borish natijasida lug'atning boyitilishida muvaffaqiyatga erishiladi. Bunda ko'pincha, yakka, faol nutqiy amaliyotni tashkil qilishga mo'ljallangan guruhli mashg'ulotlar olib boriladi.

Multidisiplinar korreksiya ishlarida, ya'ni tibbiy-psixologik yondashuvlar tashkil etilgan statsionar sharoitida korreksiya ishlarining samaradorligi yanada oshadi.

O'yin ham ta'lim shakli, ham vositasi, ham metodi sifatida turli maqsadlarda qo'llanilishi uning alaliya nutq nuqsoni ustida olib boriluvchi korreksion-rivojlantiruvchi ishlarda ham vaziyatga ko'ra barcha maqsadlarida adaptivlashtirilishi mumkin degan xulosaga keldik. Chunki o'yinning kommunikativlik, motivatsion yo'naltirilganlik kabi tamoyillar doirasida jarayonni tashkil etishga xizmat qilishi ham ta'limiy tadqiqotimizda undan foydalanishimizga turtki bo'ldi. Buning uchun "Logopedik o'yin" modulini o'qitish jarayonida didaktik o'yinlardan korreksion-rivojlantiruvchi maqsadda foydalanishga e'tibor qaratdik. Chunki aynan shu modul nutqida nuqsoni bor bolalarning kommunikativ, ijodiy faoliyatini tashkil etishga talabalarni tayyorlaydi. Ayniqsa, alaliya nutq nuqsoniga ega bolalar faoliyatini musiqa va boshqa intellektual-nutqiy rivojlanishga ta'sir etuvchi vositalar yordamida tashkil etish o'zining qiziqarli va bolalarni faollashtirish imkoniyati bilan samaralidir. Bu jarayonga talabalarni tayyorlashda amaliy mashg'ulotlar jarayonida imitatsion-korreksion, o'quv-ijodiy muhit yaratish talab etildi. Biroq aynan musiqali, o'yinchoqli fonda o'yinni tashkil etish orqali Alaliya nutq nuqsoniga ega bolalarning emotsional barqarorligini ta'minlash va shu asosida umumiy rivojlanish dinamikasini ko'tarish bo'yicha tavsiyalarni joriy etdik.

Buning uchun Alaliya nutq nuqsoniga ega bolalar bilan olib boriluvchi o'yinlarning ro'yxati va ssenariylarini tuzdik.

Talabalarni alaliya nutq nuqsoni bor bolalar bilan ishlashda o'yindan foydalanishga tayyorlashga mo'ljallangan ta'limiy o'yinlarni qo'llashda uchta asosiy yo'nalishda metodik ishlar amalga oshirildi: o'yinga tayyorgarlik, o'yinni amalga oshirish, o'yin natijalarini tahlil qilish va metodik refleksiya.

Talabalarni o'yinga tayyorlash bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi: o'yinni tanlash; o'yin alaliya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning qaysi yosh davri uchun mosligini aniqlash; o'yin uchun maydon tanlash; vositalarni tayyorlash.

Ta'limiy tadqiqot davomida talabalarning Alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlashda "Nuqson-tashxis-farq", "Bulut va quyosh", "Pedagogik

zina” va “Metodik piramida” kabi mualliflik metodlardan foydalanildi. Mazkur texnologiyalar talabalarning Alaliya nutq nuqsoni haqidagi bilimlarini mustahkamlash, ko‘nikma va malakalarini tizimli rivojlantirish hamda mazkur nuqson ustida ishlash bo‘yicha metodik, diagnostik kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini berdi.

